

MENEJMENT ASOSLARI VA BIZNES REJA

The background features a gradient of teal colors. A prominent dark teal shape, resembling a stylized arrow or a step, points upwards and to the right, starting from the bottom left and extending towards the top right. This shape is layered over a lighter teal background. The title text is centered in the upper half of the image.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

N.K. YO‘LDOSHEV, S.SH. YUSUPOV, G.E. ZAXIDOV

MENEJMENT ASOSLARI VA BIZNES REJA

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining
5320900 – Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini
ishlash va texnologiyasi (to‘qimachilik sanoati) yo‘nalishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti
Toshkent – 2017

UO‘K: 65.01(075.8)

KBK: 65.290-2

Yo‘-77

Yo‘ldoshev, N.K.

Menejment asoslari va biznes reja [Matn]: darslik / N.K. Yo‘ldoshev, S.Sh.Yusupov, G.E.Zaxidov. – Toshkent: – O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – 252 bet.

Ushbu darslikda menejmentning nazariy jihatlarini, boshqaruv munosabatlari va tashkilotlarning rivojlanishidagi yangi tendensiyalar zamonaviy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Boshqaruv jarayonining asosiy figurasi – kasb egasi bo‘lgan boshqaruvchi menejerga, uning shaxsi, ishni tashkil qilish, o‘zini o‘zi boshqarish va mehnat jamoasini tashkil qilishga muhim o‘rin ajratiladi.

«Menejment asoslari va biznes reja» fani bo‘yicha tayyorlangan darslik o‘z tarkibiga korxonani, uni tashkil qilish asoslari, korxonada mehnatni tashkil etish, normalashtirish va unga haq to‘lash masalalarini hamda korxonani faoliyatini rejalashtirish usullarini ham oladi.

Darslik oliy va o‘rta maxsus ta‘lim o‘quv yurtlari talabalari, jumladan trikotaj mahsulotlari texnologiyasi yo‘nalishi talabalari, ilmiy tadqiqotchilar, o‘qituvchilar hamda amaliy xodimlar, turli darajadagi menejerlar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 65.01(075.8)

KBK: 65.290-2

Taqrizchilar:

1. F. Nazarova – TMI, «Moliyaviy menejment» kafedrasini professori, i.f.d.
2. A. Majidov – TTYSI, «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasini dotsenti, i.f.n.
3. R. Isayev – TTYSI, «Menejment» kafedrasini dotsenti, i.f.n.

ISBN 978-9943-07-563-4

© O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotimiz oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri raqobatchilik muhitini shakllantirish bilan bir qatorda ichki bozorni sifatli mahsulotlar va xizmatlar bilan to'ldirishni jadallashtirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ta'minlash uchun xalq xo'jaligining barcha sohalarida taraqqiyotga erishish lozim ekan bunda respublika xalq xo'jaligi taraqqiyotida to'qimachilik sanoati tarmoqlari ham nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Korxonalar faoliyatining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlaridan birinchisi – korxonalar ishlab chiqargan mahsulotini bozorda sotish bo'lsa, ikkinchisi – korxonaning mustaqilligi, uchinchisi esa korxonaning texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini amalga oshirish hamda yuqori samaradorlikka erishish va nihoyat, iqtisodiy masalalarda rahbarlikning yaxshi yo'lga qo'yilishi va korxonalar kelajagini rivojlantirish masalalarining mas'uliyati ham korxonalar zimmasiga yuklatilishidan iboratdir.

Korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor talabiga mos ravishda yuqori sifatli xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ham iqtisodiy, ham tashkiliy sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish bozor munosabatlarida qo'shimcha daromad manbayi bo'lib, korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu bilan birga, to'qimachilik sanoati korxonalarida ish faoliyatini bugungi kun darajasida tashkil etish, boshqarish va rejalashtirish ham dolzarb masalalardandir.

«Menejment asoslari va biznes reja» o'quv kursining maqsadi talabalar tomonidan aniq bozordagi boshqariladigan obyektning raqobatbardoshligini ta'minlashning majmuaviy tizimi sifatida menejment tizimining ilmiy tamoyillari va usullarini egallash, ularni amalda qo'llash uchun kerakli ko'nikmalarni mustahkamlashdan iboratdir.

«Menejment asoslari va biznes reja» fani bo'yicha tayyorlangan darslik o'z tarkibiga korxonalar, uni tashkil qilish asoslari,

korxonada mehnatni tashkil etish, normalashtirish va unga haq to'lash masalalarini hamda korxonada faoliyatini rejalashtirish usullarini ham oladi.

To'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillaridan biri ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini tezkorlik bilan ishlab chiqarishga joriy etish hisoblanadi. Dunyo bozori talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish uchun korxonalarini ishlab chiqarishga puxta tayyorlashni talab etadi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun to'qimachilik sanoati korxonalarini texnik jihatdan qayta qurollantirish, yangi texnika va ilg'or texnologiyani joriy etish, yangi materiallardan foydalanish, shu bilan birga texnologik jarayonlarni yo'lga qo'yish talab qilinadi. Buning uchun mehnatni oqilona va to'g'ri tashkil qilish lozim. Chunki har qanday texnika va texnologiya o'z-o'zidan yuqori ko'rsatkichlarga erishishga yordam berolmaydi. Shuning uchun texnika va texnologiyani joriy qilishni, mehnatni to'g'ri tashkil qilish bilan birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir.

«Menejment asoslari va biznes reja» fani ishlab chiqarish texnologiyasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Ishlab chiqarish texnologiyasini bilmay turib, ayrim ishlab chiqarish jarayonlarida yoki umuman korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish masalalarini hal etib bo'lmaydi. O'z navbatida ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish ham ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning eng ratsional yo'llarini belgilash orqali ishlab chiqarish texnologiyasiga ta'sir etadi.

Shu boisdan ham, to'qimachilik sanoati texnologiyasi yo'nalishidagi bakalavrlarni tayyorlashda «Menejment asoslari va biznes reja» fani muhim o'rin tutadi. Texnolog mutaxassis faqat texnikaviy rahbargina bo'lib qolmay, balki korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining tashkilotchisi ham bo'lishi kerak. Texnolog mutaxassis ishlab chiqarish texnologiyasini mukammal bilishi bilan birga ishlab chiqarishni tashkil qilish, ishlab chiqarishni rejalashtirish haqida, ishlab chiqarilayotgan mahsulotga

nisbatan talab va taklif, turdosh korxonalarining ishlab chiqarayotgan mahsulotlari va bozorlar haqida, buxgalteriya, moliyaviy ishlar haqida, tashqi iqtisodiy aloqalar haqida va boshqa bir qator iqtisodiy bilimlarga ham ega bo'lishi kerak.

Darslikning mazmuni oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga mos keladi. Darslik o'z ichiga quyidagilarni oladi: kirish, asosiy matnning boblari – ulardan har birida nazorat savollari, asosiy tayanch iboralar mavjud. Asosiy matn mantiqan o'z ichiga menejmentning asosiy tushunchalari va tariflarini oluvchi nazariy asoslaridan tortib, to to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil qilish va biznes rejalashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalargacha bo'lgan o'zaro bog'langan boblarga bo'lingan.

Darslik matnining mazmuni «Menejment asoslari va biznes reja» kursini egallashga imkon beradi. Nazorat savollari yordamida ushbu fan bo'yicha bilimlarni tekshirish imkoniyati mavjud. Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'rganish esa fanni chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

I bo'lim. MENEJMENT ASOSLARI

I bob. «MENEJMENT ASOSLARI» FANINING PREDMETI, OBYEKTI VA METODLARI

Reja:

- 1.1. «Menejment asoslari» fanining mazmuni, predmeti va vazifalari.
- 1.2. Menejmentning obyekti va subyekti.
- 1.3. Menejmentning ilmiy yondashuvlari va tamoyillari.
- 1.4. Menejmentning ilmiy maktablari.
- 1.5. O'zbekistonda boshqaruv fanining rivojlanishi.

1.1. «Menejment asoslari» fanining mazmuni, predmeti va vazifalari

Mustaqil O'zbekiston davlatini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash ko'p jihatdan zamon talabiga javob beradigan rahbar va mutaxassislarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejnlarni (boshqaruvchilarni) tayyorlashda «Menejment» fani alohida o'rin egallaydi.

«Menejment asoslari» fanining asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan malakali boshqaruvchilarni tayyorlash, ya'ni o'quvchilarda zamonaviy fikrni shakllantiradigan, xo'jalik yuritish va boshqaruvda yangicha usullarni qo'llay oladigan, shuningdek, rahbarlik san'ati sirlarini o'rgana oladigan darajada nazariy va amaliy bilimlar berishdir. Shuningdek, talabalarda O'zbekistonda va xorijda ishlab chiqarishni boshqarish nazariyasi va amaliyotining rivojlanish bosqichlarini, firmani muvaffaqiyatli boshqarish, biznesda ichki va tashqi muhit, rahbarlik va hokimiyat, tashkilotning samarali faoliyat ko'rsatishida ishlab-chiqarishni boshqarish hamda tashkilotdagi nizo (ixtilof) masalalarini bartaraf etishni o'rgatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ham fanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Fanning asosiy vazifasi korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish, shuning negizida bozorni zarur yuqori sifatli

xalq iste'moli mahsulotlari bilan boyitish, jahon bozoriga chiqishga keng yo'l ochish va o'z mahsulotlarini xorijiy davlatlarda raqobatbardosh qilib tayyorlash, uni valyutaga sotish va bu bilan respublika iqtisodiyotini boshqarishni xalqaro andozalarga olib chiqadigan kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yishning ilmiy negizini yaratishdir.

«Menejment asoslari» fani muayyan iqtisodiy, ijtimoiy fanlar, xalq xo'jaligini rejalashtirish, statistika, buxgalteriya hisobi, moliya, kredit, rejalashtirishning iqtisodiy matematik usullari, psixologiya, huquqshunoslik va iqtisodiyot nazariyasi kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.


Fanning vazifasi iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik ilmlarning mavjud yutuqlaridan ishlab chiqarishni boshqarishda maqsadga muvofiq foydalanish natijasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq qilish va nihoyat, bular asosida mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va xalq farovonligini oshirishdir. Bu fanning predmeti boshqaruvchi tizim va boshqarish obyekti orasidagi o'zaro munosabatdir. Shuningdek, korxonalar, birlashmalar, ularning tarkibiy birliklari, muassasalar, assotsiatsiyalar, konsorsiumlar va konsernlar hamda turli tashkilotlarda boshqarish qonuniyatlari va tamoyillarini o'rganish fanning asosini tashkil qiladi.

1.2. Menejmentning obyekti va subyekti

Umumiy ko'rinishda boshqaruv ikkita obyektning maqsadiga qaratilgan o'zaro hamkorligidan iborat bo'lib, bunda ulardan biri boshqaruv subyekti o'rnida, boshqasi esa boshqaruv obyekti o'rnida bo'ladi.

Bu o'zaro hamkorlik uchun quyidagilar xosdir:

- boshqaruv subyekti boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish impulslari (boshqaruv buyruqlari)ni jo'natadi, ular boshqaruv obyekti qanday faoliyat yuritishi haqidagi axborotga ega bo'ladi;
- boshqaruv obyekti ushbu impulslar (buyruqlar)ni oladi va ularga muvofiq harakat qiladi (1.1-rasm).



To'g'ridan to'g'ri ta'sir

Teskari aloqa

1.1-rasm. Boshqaruv tizimining boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalari.

Boshqaruv subyektini sifatida firmalar bo'limlari va xizmatlari majmuasini yoki alohida bo'linma, yakka shaxs va boshqalarni ko'rib chiqish mumkin. Boshqaruv obyektini sifatida xodim, mehnat jamoasi, tovarlar, resurslar, hujjatlar va h.k. bo'ladi. Masalan, usta uchastkaning ishini tashkil qiladi. Bunda u past darajadagi menejer yoki boshqaruv subyektini, ishchilar esa boshqaruv obyektlari bo'ladi. Tashkilotning tijorat direktori bo'linmalarining ishini tashkil qiladi. Bunda u menejer yoki boshqaruv subyektini, ko'rsatilgan bo'linmalar – boshqaruv obyektlari bo'ladi.

Boshqaruvning boshqa tariflari ham mavjud. Masalan, ko'zga ko'ringan tadqiqotchi P. Druker (AQSH) hisoblaydiki, boshqaruv bu tashkil qilinmagan to'dani samarali maqsadga yo'naltiruvchi va ishlab chiqarish guruhiga aylantiruvchi faoliyatning asosiy turidir. Amerikalik olim K. Killen boshqaruvni «Ishni boshqalarning qo'li bilan bajarish» sifatida belgilaydi.

Ta'kidlash kerakki, boshqaruvni ko'pincha subyektning obyektga ta'siri sifatida belgilaydilar, ya'ni boshqaruv subyektining faoliyatiga tenglashtiradilar. Bunda boshqaruvga subyektning obyektga bir tomonlama ta'siri sifatida qaraladi, bu boshqaruvning mohiyati haqidagi noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Dialektik o'zaro aloqa, obyekt va subyektning birligini ularning subordinatsion joylashuvi bilan almashtirish natijasida boshqaruvning harakatlanuvchi boshlanishi – subyekt va obyekt o'rtasidagi ziddiyat nazardan tashqarida qoladi. Shuning uchun boshqaruv obyektining boshqaruv buyruqlarini bajarishga imkoniyati va tayyorligi qanchalik to'liq hisobga olinmasin, agar ular faqat samaraliroq boshqaruv ta'sirlarini qidirish uchun asos sifatida ko'rib chiqilsa,

boshqaruv imkoniyatlarini baholash boshqaruvni amalga oshirishning haqiqiy imkoniyatlariga adekvat bo'lmaydi. Demak, boshqaruvni faqat boshqaruv subyekti holatida ko'rib chiqish mumkin emas.

Subyektning boshqaruv obyekti bilan o'zaro hamkorligi uchun ular o'rtasida majmuaviy xarakterga ega munosabatlar mavjud bo'lishi zarur. Bunda boshqaruvning ayrim darajalaridagi munosabatlarning u yoki bu turlari ustunlik qiladi. Iqtisodiy munosabatlarga asoslangan boshqaruv munosabatlari keng tarqalgan. Munosabatlarning quyidagi ikki turi boshqaruv uchun prinsipial bo'ladi: assotsiatsiyalangan mulk egalarining birgalikdagi faoliyati jarayonida mehnatni taqsimlanishi va kooperatsiyalashuvida vujudga keluvchi munosabatlar va mulk egalari hamda ishlab chiqarish vositalaridan foydalanuvchilar o'rtasida vujudga kelgan yollash munosabatlari (to'lov munosabatlari).

Agar bir tomondan boshqaruv subyektida boshqarishga ehtiyoj va imkoniyat, boshqa tomondan esa boshqaruv obyekti boshqaruv buyruqlarini bajarishga ehtiyoji va imkoniyati bo'lsa, boshqaruv haqiqiy bo'ladi.

Subyektni boshqaruvchi faoliyati bunda u qanday maqsadlarni ko'zlashiga ko'ra ma'lum yo'nalishni oladi. Agar boshqaruv maqsadlari subyektning boshqaruv faoliyati jarayonida ko'zlangan maqsadiga mos kelsa, u samarali boshqarishga qaratilgan bo'ladi. Boshqaruv subyektning boshqaruvni amalga oshirish imkoniyati, birinchidan – tashkiliy-texnik jihatlar bilan xodimlarda aloqa va axborotlarni uzatishning kerakli kanallari, boshqaruvning talab qilishidagi texnikasi va h.k. mavjudligi bilan, ikkinchidan – boshqaruv subyektida boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatishning, uning yordamida buyruqlarni bajarishga undovchi dastaklarning mavjudligi bilan, ya'ni boshqaruv obyektining boshqaruv buyruqlarini bajarishga imkoniyati va tayyorligi bilan asoslanadi.

Masalan, agar boshqaruv obyekti ishlab chiqarish vositalarining mulk egasi bo'lmasa, unda uning boshqaruv buyruqlarini bajarishga tayyorligi uning ehtiyoji buning natijasida qanchalik qanoatlanishiga bog'liq bo'ladi, buyruqni bajarish imkoniyati esa uning ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bog'langan. Bu holda



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/3840> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3840> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3840>